

| | | |
|----|-----------------|--------------|
| 17 | Kafolat summasi | 3% |
| 18 | Pul birligi | O'zbek so'mi |

Bajardi: 

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASHDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

Xiva tuman Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etishga ishtirokchilarini taklif etamiz va quyidagi ob'ekt bo'yicha tanlash taklifini taqdim etilishini so'raymiz.

Ob'ekt nomi: « Serchali maxallasi 22-maktabga olib boruvchi ichki xo'jalik yo'li-1,445 km » ishlariga loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash

Ob'ektning boshlang'ich narxi (QQS bilan) – 27 000 000 so'm.

Ishlarni tugallash muddati – 8 kun.

♦ Buyurtmachi: "Xiva tuman Obodonlashtirish boshqarmasi": (Shomoxulum mahallasi Tinchlik ko'chasi), Tel: 99-023-04-57.

Loyihani moliyalashtirish manbasi: Davlat byudjeti.

Taklif etilgan shartlar bo'yicha tanlashda murojaat bilan mahalliy tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin.

Tanlashda ishtirok etishi uchun ishtirokchilarga quyidagi talablar qo'yiladi:

fuqarolik-muomala layoqati va shartnoma tuzish vako'lati;

Litsenziyaga ega bo'lishi;

doimiy xodimlari, jumladan muhandis-texnik xodimlariga ega bo'lishi;

ishlab turgan asosiy vositalari, shu jumladan, ofis texnikalariga ega bo'lishi;

tanlashda ob'ektiga o'xshash ob'ektlarda ishlaganlik tajribasi mavjudligi;

bajarilgan ishlar, shu jumladan o'z kuchi bilan oldin bajarilgan ishlar hajmi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

ustav fondi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar.

Agar tanlash predmeti bo'lgan ish (xizmat) larni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi zarur bo'lsa, tanlashda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga asosan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan tanlash ishtirokchilarga ruxsat etiladi.

Quyidagi xollarda ishtirokchilariga tanlash jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi: qayta tashkil etilish (bo'linish, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar;

mol-mulki musodaraga olinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding, konsorsium va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjud tashkilotlar.

Buyurtmachi tashk
rahbari:



S. Matmurotov

ISHTIROKCHILAR UCHUN YO'RIQNOMA

Ushbu yo'riqnoma 2021 yil 22 apreldagi №684-sonli O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga asosan xamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 mayda №3016-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Loyixa Boshqaruv Milliy Agentligining "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan ishlab chiqildi.

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASHDA HUJJATLARINING MUNDARIJASI

Texnik qism:

- 1 - **shakl.** Tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumotlar.
- 2 - **shakl.** Tanlash ishtirokchisining moliyaviy ko'rsatkichlari (ilovalari bilan).
- 3 - **shakl.** Tanlashdagi ob'ektga o'xshash ob'ektlarda oxirgi uch yillik ish tajribasi.
- 4 - **shakl.** Tanlash ishtirokchisining ishlarni bajarishda ofis texnikasining ro'yxati.
- 5 - **shakl.** Qurilish maydonchasini ko'zdan kechirganligi to'g'risida ma'lumotnoma.
- 6 - **shakl.** Loyiha smeta xujjatlarini ishlarini bajarish grafigi.

Tijorat qismi:

Loyiha smeta xujjatlarini ishlab chiqishning boshlang'ich narxi (elektron tizim orqali);
Loyiha smeta xujjatlarini ishlab chiqishning muddati (elektron tizim orqali);
moliyalashtirish manbasi, shartlari hamda shartnoma loyihasidan iborat.

ISHTIROKCHILARNING TANLASHDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

1. Tanlashda mulkchilik shaklidan katiy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, kamida 5 yil tajribaga ega bo'lgan barcha yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan yuridik shaxsdir.

Ishtirokchi:

davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;

xarid komissiyasi tomonidan takliflar ochilayotganda belgilangan tartibda ishtirok etish;

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;

qonunchilikka muvofiq takliflarga o'zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.

Ishtirokchi:

davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo'lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo'lishi;

asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi;

g'olib deb topilgan taqdirda, davlat buyurtmachisi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

Ishtirokchi va uning affilangan shaxsi eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha ayni bitta lotda ishtirok etish huquqiga ega emas.

Elektron tanlashda quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lgan ishtirokchilar qatnasha oladi:

shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

solliqlar va yig'imglar bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;

o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.

2. Tanlashda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar talab etiladi:

ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mexnat resurslari va mutaxassislarining mavjudligi hamda moddiy tehnik bazaga ega bo'lishi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik, xukukiy layokat va vakolatlar;

tanlash obektiga o'xshash ob'ektlarda ishlash tajribasining mavjudligi;

o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish xajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

loyixalashtiriladigan ob'ektning murakkablik toifasiga ko'ra belgilangan tartibga muvofiq tegishli toifali, litsenziyasi bo'lishi, shunga o'xshash ob'ektlarda ishlagan bo'lishi lozim.

3. Quyidagi talabgorlarga tanlash jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat etilmaydi:

qayta tashkil etilish (ajratilish, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar;

mol mulki musodara qilinganlar hamda moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramiligi mavjudlar.

4. Tanlash ishtirokchilari tanlash predmetining loyixa xujjatlari, xususan, loyixani grafik qismi (chizmalari) bilan tanishib chiqish va tanlash taklifini tuzish uchun buyurtmachiga (tanlash tashkilotchisiga) taqdim etilishi xaqida murojat qilishga xaqlidir.

5. Elektron tanlashda quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lgan ishtirokchilar qatnasha oladi:

shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarning hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy xuquqqa egalik;

solliqlar va yig'imglar bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;

o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.

XARID KOMISSIYASI

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish chog'ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o'tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan

qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkil etadi.

Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlashini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlashi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

«TASDIQLAYMAN»

Xiva tuman Obodonlashtirish
boshqarmasi boshlig'i:

Texnik topshiriq

Xiva tuman Serchali maxallasi 22-maktabga olib boruvchi ichki xo'jalik yo'li-1,445 km
joriy ta'mirlash ob'ekti LSH ishlab chiqish

Eng yaxshi takliflarni tanlashda ma'lumot jadvali

Bu bo'limda Eng yaxshi takliflarni tanlash (keying o'rinlarda tanlash deb yuritiladi) mavzusi bo'yicha aniq qoidalar, shuningdek, tanlash hujjatlarining boshqa bo'limlarida keltirilgan ma'lumotlar yoki talablar mavjud

| № | Bo'lim nomi | izot |
|----|---|--|
| 1 | Buyurtmachi: | Xiva tuman Obodonlashtirish boshqarmasi |
| 2 | TANLASH PREDMETI: | Xiva tuman Serchali maxallasi 22-maktabga olib boruvchi ichki xo'jalik yo'li-1,445 km joriy ta'mirlash ob'ekti LSH ishlab chiqish |
| 3 | Tanlash tartib raqami: | № 3 |
| 4 | Buyurtmachining manzili va bog'lanish uchun kontaktlar: | Xorazm viloyati Shomoxulum mahallasi Tinchlik ko'chasi, 99-023-04-57 |
| 5 | Mas'ul shaxs bilan bog'lanish tel: | |
| 6 | Tanlov e'lon qilinadigan portal | Maxsus axborot portali: www. exarid.uzex.uz |
| 7 | Ishtirokchilar tanlashda ishtirok etishi | Yuridik shaxslar uyushmalari (konsorsiumlari) tanlovida ishtirok etishga yo'l qo'yilmaydi Ishtirokchi va uning afillangan shaxsi tanlash bo'yicha ayni bitta lotda ishtirok etish huquqiga ega emas |
| 8 | Litsenziyalangan ish turlari | Ushbu turdagi obektlar LSH ishlab chiqish uchun litsenziya talab etiladi |
| 9 | Tanlash taklifining amal qilish muddati: | takliflarni qabul qilish tugagan kundan boshlab kamida 10 ish kuni |
| 10 | Takliflarni qabul qilish | Takliflar exarid.uzex.uz saytida e'lon qilingan paytdan boshlab elektron tartibda elektron tizim operatori tomonidan qabul qilinadi |
| 12 | Tanlash va takliflarni ochish, amalga oshirish shakli | Elektron ko'rinishda |
| 13 | Takliflarni baholash muddati | Tanlov taklifini baholash muddati takliflar qabul qilish tugagan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmaydi |
| 14 | Tanlash tili: | O'zbek tili |
| 15 | Moliyalashtirish manbai | Budjetdan tashqari mablag' lari |
| 16 | Avansa | 30 % |